O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Termiz tumani, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 191200, tel.: (+99876) 36-32-200, faks.: (+99876) 36-32-200, termiz.t@exat.uz

2024 - yil 28 - may 190-8-117-Q/24 Termiz tuman hokimligi

Tumanda navbatdagi 2025-yilgi chaqiruv mavsumi oldidan 1998-2006-yillarda tug‘ilgan chaqiriluvchilarning oilaviy sharoitlarini va sog‘liq darajalarini o‘rganish, oldindan qo‘shin turiga tanlash hamda ular o‘rtasida Tanlovni o‘z vaqtida sifatli tashkillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-mart kunidagi ***“O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy xizmatga chaqirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”***gi PQ-4630-sonli Qaroriga asosan navbatdagi 2025-yilgi chaqiruv mavsumini yuqori saviyada o‘tkazish uchun 1998-2006-yilda tug‘ilgan chaqiriluvchilaming oilaviy sharoitlarini, sog‘lig‘i va hujjatlarini o‘rganish, oldindan qo‘shin turlariga tanlash hamda O‘zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-aprel kunidagi ***“Chaqiriluvchilarni tanlab olish tartibi to‘g‘risida”***gi 291-sonli Qaror talablarini amalga tadbiq qilish maqsadida:

1. Tuman Mudofaa ishlari bo‘limiga (O.Abduxalikov):

aloqador tashkilotlar bilan birgalikda 2025-yilgi chaqiruv mavsumida chaqiriladigan fuqarolarni saralab olish bo‘yicha dastlabki Tanlovni joriy yilning l-iyulidan 2025-yilning 10-fevral kuniga qadar olib borsinlar;

joriy yilning avgust oyidan 2025-yilning 10-fevral kunigacha chaqiriluvchilardan umumjismoniy tayyorgarlik sinovini qabul qilish hamda yakka

tartibdagi suhbatlar mudofaa ishlari bo‘limi tomonidan ishlab chiqilgan jadvallarga asosan amalga oshirilsin.

2. Tuman Tibboyot birlashmasi (Sh.Davlyatov) tuman Mudofaa ishlari bo‘limi tibbiy komissiya tarkibiga jalb qilingan shufokorlarning tibbiy komossiya o‘tkazish (oktabr-fevral) davrida asosiy ish joylaridan ish haqi saqlanib o‘z majburiyatlaridan ozod etilgan holda jalb etilishini inobatga olsin;

tibbiy komissiyalar o‘z ishini O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirli, Milliy gvardiyasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlk xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Sog‘liqni saqlsh vazirligi, 2019-yil 3-aprel kunidagi 3147-son Qarori talablariga mos ravishda tibbiy asbob-uskuna va anjomlar bilan ta‘minlangan holda amalga oshirsin.

2025-yilgi chaqiruv mavsumida tuman Mudofaa ishlari bo‘limi yig‘uv punktini sanitar holatini yaxshilash hamda gigiyena qoyidalariga rioya qilish maqsadida yil davomida tuman Tibbiyot birlashmasi tomonidan doimiy 2 (ikki) nafar sanitar xodim ajratilsin.

Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi tomonidan taqdim etilgan jadvalga asosan tuman Tanlov kengashining tanlovni o‘tkazish jarayonida chaqiriluvchilarga tez tibbiy yordam ko‘rsatish uchun tibbiyot xodimlari (tez yordam) ajratilsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari R.Togayev:

- chaqiriluvchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish maqsadida tumanda tibbiy komissiya tarkibini tuzsin;

- chaqiruv yoshidagi fuqarolarni muddatli harbiy va safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatlariga tanlab olish hamda o‘rganish ishlarini mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan hamkorlikda o‘tkazilishini tashkil etsinlar;

- chaqiriluvchilarni o‘rganish uchun mudofaa ishlari bo‘limi taqdim etgan ro‘yxatga asosan, chaqiriluvchilar va ularning ota-onalari bilan birga mahalla fuqarolar yig‘inlariga yetib kelishlarini hududlarda joylashgan mahalla fuqarolar yig‘inlari o‘z nazoratiga olsinlar;

- chaqiriluvchilarni o‘rganish jarayonida joylardagi uchastka profilaktika inspektori, uchastka vrachi, xotin-qizlar qo‘mitasi, din ishlari bo‘yicha maslahatchisi va mahalla fuqarolar yig‘ini kotiblarining faol ishtirok etishlarini ta’minlasinlar;

- chaqiriluvchilarni umumjismoniy tayyorgarlik darajasini baholash, ular bilan yakka tartibda suhbat o‘tkazish bo‘yicha quyidagi tartibda Tanlov Kengashi tarkibi tasdiqlansin:

Tanlov Kengashi raisi:

“Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘mak1ashish” bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari;

Tanlov Kengashi a’zolari:

Tuman Maktabgacha va maktab ta’1imi bo‘limi mudiri o‘rinbosari;

Tuman Ichki ishlar bo‘limi Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosari;

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilari;

Chaqiriluvchilarning ota-onalari orasidan vakillar;

4. Tanvlov kengashi tomonidan o‘tkaziladigan tadbirlarda chaqiriluvchilar va ularning ota-onalari tomonidan kelib chiqadigan norozichiliklarni ko‘rib chiqish uchun apellyatsiya tarkibi quyidagicha tuzilsin:

Apellyatsiya tarkibi:

Apellyatsiya tarkibi raisi shahar tuman xokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari.

Apellyatsiya a’zolari:

Tuman Xalq ta’limi bo‘limi mudirining o‘rinbosari;

Tuman Ichki ishlar bo‘limi Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosari;

Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari.

5. Yoshlar ishlar Agentligi tuman bo‘limi (Z.Bakijonov)ga tumangi chaqiruv yoshidagi barcha fuqarolar va ulaming ota-onalari, mahallalardagi yoshlar agentligi vakillari orqali yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vatanni himoya qilish sharafli burch ekanligi bo‘yicha tadbirlar o‘tkazilsin va ularni muddatli harbiy xizmatga tanlab olishda mahallalardagi yoshlar agentligi vakillarini faol qatnashishini nazoratga olinsin.

6. Tuman kasb-hunar maktabi (J.Haydarov), tuman Madaniyat bo‘limi

(Sh.Yo‘ldoshev) va tuman Sport maktabi (R.Abrayev) tuman Mudofaa ishlari bo‘limining talabnomasi va jadvaliga asosan chaqiriluvchilar Tanlovini o‘tkazish maqsadida chaqiriluvchilarni tanlab olish to‘g‘risidagi Nizomga ko‘ra:

sport mutaxassisi o‘qituvchilarini;

chaqiriluvchilarni umumjismoniy tayyorgarlik darajasini baholash-umumjismoniy normativlarini qabul qilish uchun joylardagi sport maydonchalari (stadion);

yakka tartibda suhbat o‘tkazish uchun joylar belgilansin va ushbu suhbat jarayonini kuzatuv kameralari o‘rnatilgan holda shaffofligini ta’minlash maqsadida chaqiriluvchilarning ota-onalari uchun onlayn ulangan monitor bilan jihozlangan xona ajratilsin.

7. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (O‘.Mustafaqulov) chaqiriluvchilarni tuman Mudofaa ishlari bo‘limiga yetib kelishini ta’minlash choralari ko‘rish, shuningdek, harbiy xizmatdan bo‘yin tovlaganlarni izlab topib tuman Mudofaa ishlari bo‘limiga yetkazish, turli sabablar bilan boshqa hududlarga ketgan chaqiriluvchilaming ota-onalariga O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun talablari yuzasidan tushuntirish ishlari olib borsinlar;

chaqiriluvchilarni o‘rganish vaqtida, jinoyat sodir etib, jinoiy javobgarlikka tortilgan hamda dastlabki surishtiruv va tergov harakatlari olib borilayotgan shaxslarni Qurolli Kuchlar safiga olinmasligini oldini olish maqsadida o‘rganish ishlari davrida profilaktika inspektorlarining ishtirokini ta’minlasinlar;

tuman Mudofaa ishlari bo‘limi tomonidan taqdim etilgan jadvallarga asosan tuman Tanlov kengashining tanlovni o‘tkazish jarayonida jamoat tartibini saqlash uchun ichki ishlar organlari xodimlarini ajratsin.

8. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Jumayev)ga tuman chaqiruv punkti binosini ta’mirlash, tuman Mudofaa ishlari bo‘limi tomonidan foydalanilgan avtotransport va bosmaxonalarda tayyorlanadigan hujjat shakllari xarajatlarini smetada ajratilgan mablag‘lar doirasida moliyalashtirish topshirilsin.

9. Tuman hokimining 2023-yil 13-iyul kunidagi 152-8-117-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilishni tuman hokimining o‘rinbosari R.Togayev zimmasiga yuklatilsin.

Termiz tumani hokimi **SH.X.Nazarov**